



KREDITNING  
TO'LIQ QIYMATI %  
(       SUMMA YOZIB  
KO'RSATILGAN)  
FOIZ  
YILLIK

№        -sonli Shartnoma

«ANOR NASIYA» muddatli to'lov kartasini taqdim etish to'g'risida

                   shahri

kk.oy.yyyy-yil

«ANOR BANK» Aksiyadorlik Jamiyati, bundan buyon «Bank», deb yuritiluvchi, bir tomondan va O'zbekiston Respublikasi fuqarosi F.I.Sh.                    (                   tomonidan kk.oy.yyyy-yilda berilgan ID-karta/pasport №                   ) «Qarz oluvchi» deb yuritiluvchi, ikkinchi tomondan, birgalikda «Taraflar», alohida-alohida «Taraf» deb ataluvchi bo'lib, quyidagilar to'g'risida «ANOR NASIYA» muddatli to'lov kartasini taqdim etish haqidagi mazkur Shartnomani (bundan buyon – «Shartnoma») tuzdilar:

### ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Mazkur Shartnoma matnida, agar boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa yoki matn mazmunidan boshqacha xulosa kelib chiqmasa, ushbu bo'limda berilgan atama va ta'riflar quyidagi ma'nolarni bildiradi:

**Anketa** – Qarz oluvchi (potensial qarz oluvchi) tomonidan unga muddatli to'lov kartasi berilishi ehtimolini baholash maqsadida Bankka yo'naltiriladigan, Qarz oluvchi haqida umumiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjat (shuningdek, MBXda shakllantiriladi).

**Ariza** – Bankka yo'llanadigan, Qarz oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni, so'raladigan kreditlash parametrlarini va Qarz oluvchining integratsiyalashgan ma'lumotlar bazalaridan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash/uzatishga roziligini o'z ichiga olgan elektron shakldagi hujjat, Ariza Qarz oluvchi tomonidan Oddiy elektron imzo bilan tasdiqlanishi mumkin.

**Qarz oluvchi** - tasdiqlangan daromadga ega bo'lgan va Bankka «ANOR NASIYA» Muddatli to'lov kartasi mahsulotini olish uchun ariza taqdim etgan jismoniy shaxs (O'zbekiston Respublikasi fuqarosi yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxs) (bundan buyon «Muddatli to'lov kartasi»).

**Ko'chirma** - Qarz oluvchining Bank hisobvarag'i bo'yicha Hisobot davrida amalga oshirilgan operatsiyalar, Bank oldidagi umumiy qarzdorlik miqdori (foizlar va boshqa to'lovlarni o'z ichiga olgan barcha turdagi qarzdorlik bo'yicha) to'g'risidagi ma'lumot.

**Oylik to'lov (Muddatli to'lov bo'yicha to'lov)** - Qarz oluvchi Qarzdorlikni so'ndirish uchun yo'naltirishi va To'lov davri tugashiga qadar (To'lov sanasidan kechiktirmay) Hisobda ta'minlashi lozim bo'lgan pul mablag'lari summasi. Oylik to'lov Bank tomonidan avtomatik tarzda, Qarz oluvchi tomonidan Hamkorlik tarmog'iga kiruvchi savdo-xizmat ko'rsatish korxonalarida amalga oshirilgan Xarid operatsiyalari summasidan va Qarz oluvchi tegishli savdo-xizmat ko'rsatish korxonasida Xarid operatsiyasini amalga oshirishda qo'llaniladigan, Bank tomonidan belgilangan Muddatli to'lov davrlaridan kelib chiqib, shuningdek mazkur Shartnomaga muvofiq Bank Muddatli to'lov davrini belgilaydigan boshqa Operatsiyalarni, hamda Shartnoma bo'yicha Bank tomonidan to'lovga qo'yiladigan boshqa komissiya va penyalarni hisobga olgan holda shakllantiriladi.

**Qarzdorlik** – Qarz oluvchi tomonidan Shartnoma bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan barcha pul mablag'lari summasi, jumladan asosiy qarz summasi, Texnik overdraft summasi, hisoblangan, ammo to'lanmagan komissiyalar, jarimalar va Shartnoma va Bank Tariflarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlar.

**Muddati o'tgan qarzdorlik bo'yicha xabardor qilish** - Bank tomonidan muddati o'tgan qarzdorlikni qaytarish maqsadida Qarz oluvchi bilan o'zaro hamkorlik qilishning usullari.

**Muddatli to'lov kartasi (bundan buyon – Karta)** - AJ «ANOR BANK» tomonidan chiqarilgan, jumladan virtual karta bo'lib, Qarz oluvchi tomonidan Kredit limiti doirasida kredit operatsiyalarini amalga oshirish, shuningdek Kredit bo'yicha qarzдорlikni so'ndirish uchun mo'ljallangan bank kartasi. Karta Bankning mulki hisoblanadi va Bank tomonidan Qarz oluvchiga vaqtincha foydalanish uchun beriladi.

**Kirish kodi** - Bank tomonidan generatsiya qilinadigan va Qarz oluvchining Mobil telefon raqamiga SMS-xabar shaklida yuboriladigan, Qarz oluvchi tomonidan Operatsiyani amalga oshirishda, arizalar berishda foydalaniladigan maxsus bir martalik o'zgaruvchan kod. Arizalar, topshiriqlar berishda Kirish kodini kiritish Taraflar tomonidan Qarz oluvchining shaxsiy qo'lyozma imzosining analogi sifatida tan olinadi. Qarz oluvchi tomonidan Kirish kodidan foydalanib amalga oshirilgan barcha harakatlar e'tiroz bildirishga yo'l qo'yilmaydi va shaxsan Qarz oluvchi tomonidan amalga oshirilgan deb tan olinadi hamda Amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq qo'lyozma imzolardan (Oddiy elektron imzodan) foydalanishga o'xshash huquqiy oqibatlarini keltirib chiqaradi.

**Kredit limiti** - Qarz oluvchi tomonidan foydalanish uchun Bank tomonidan belgilangan qayta tiklanuvchi Kreditning maksimal miqdori.

**Muddatli to'lov davri** – Bank tomonidan Kreditdan foydalanish uchun foiz hisoblanmaydigan (undirilmaydigan) davr bo'lib, uning davomiyligi AJ «ANOR BANK»ning hamkorlik tarmog'ida ishtirok etish Qoidalarida belgilanadi. Muddatli to'lov davri Oylik to'lovlarni, shuningdek Qarz oluvchi tomonidan Bankka to'lanishi lozim bo'lgan boshqa to'lovlarni (penyalar va/yoki Kreditdan foydalanish uchun foizlarni) hisoblash maqsadida qo'llaniladi.

**Avtomatik to'lov kartasi** – Kreditni so'ndirish hisobiga mablag'larni avtomatik tartibda yechib olish uchun jismoniy shaxsning (Qarz oluvchining) bank kartasi.

**Marketing xabardorligi** – Bank va Bank Hamkorlari tomonidan Bankning yangi mahsulotlari, aksiyalari va xizmatlari to'g'risida, aloqa texnik vositalari yordamida (jumladan SMS/PUSH-xabarnomalar, elektron pochta manziliga xabarlar yuborish) Qarz oluvchi bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish orqali xabardor qilishga Qarz oluvchining roziligi.

**Foydalanilmagan kreditlash limiti** - Kredit limiti va Qarz oluvchining Bank oldidagi joriy qarzдорligi o'rtasidagi farqni tashkil etuvchi pul mablag'lari summasi.

**Hisobot davri** - majburiy Oylik to'lovni hisoblashning ikki sanasi orasidagi davr.

**Operatsiya** — Karta yordamida amalga oshirilgan va Hisobda aks ettirilishi lozim bo'lgan har qanday operatsiya (xarajat yoki kirim), shuningdek Karta va/yoki Karta rekvizitlaridan foydalanish.

**Virtual karta** – moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan, Bank tomonidan Qarz oluvchiga mazkur Shartnomaga muvofiq Anketa-Ariza asosida chiqariladigan va Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan limit hisobidan mazkur Shartnomada nazarda tutilgan Operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan hisob-kitob kartasi.

**Hamkorlik tarmog'i** – muayyan brend (firma nomi, tijorat belgisi, tovar belgisi) ostida xo'jalik (tijorat) faoliyatini amalga oshiruvchi savdo-xizmat ko'rsatish korxonalarida sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar, intellektual faoliyat natijalari) uchun to'lov sifatida Kartani qabul qilishni ta'minlaydigan yuridik shaxslar va/yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar majmui. Hamkorlik tarmog'iga kiruvchi savdo-xizmat ko'rsatish korxonalari ro'yxati Bank Saytida ko'rsatiladi.

**Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash** - shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, tartibga solish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, foydalanish, taqdim etish, tarqatish, uzatish, anonimlashtirish va yo'q qilish bo'yicha bir yoki bir nechta harakatlarni amalga oshirish.

**To'lovni bo'lib to'lash** - hisob-kitob kartasidan foydalangan holda savdo-xizmat ko'rsatish korxonalarida tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lov amalga oshirish usuli bo'lib, unda Qarz oluvchi tomonidan tovar (ish, xizmat) qiymati summasini to'lash taqdim etilgan kredit limiti doirasida qarz mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi, vujudga kelgan qarzдорlikni so'ndirish esa muayyan savdo-xizmat ko'rsatish korxonasida tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lov operatsiyalari bo'yicha bo'lib to'lash to'lov davrlari sonidan kelib chiqib teng qismlarda amalga oshiriladi.

## 1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. «ANOR NASIYA» Muddatli to'lov kartasi mahsulotining shartlari (bundan buyon «Shartlar») Bank tomonidan Qarz oluvchilarning - jismoniy shaxslarning iste'mol maqsadlari uchun Muddatli to'lov kartasini chiqarish va xizmat ko'rsatish tartibi, qoidalari va protseduralarini belgilaydi, jumladan xalq iste'moli tovarlarini sotib olish va xizmatlar (ishlar) uchun to'lov qilish uchun. Taraflar Qarz oluvchi tomonidan Qarz oluvchining elektron imzosi bilan imzolangan har qanday elektron hujjatlarni Qarz oluvchining qo'lyozma imzosi bilan imzolangan qog'oz shaklidagi hujjatlarga tengma-teng deb hisoblashga kelishib oldilar.

1.2. «ANOR NASIYA» muddatli to'lov kartasini taqdim etish to'g'risidagi Shartnoma MBX (masofadan bank xizmati ko'rsatish) vositalaridan foydalanib onlayn tartibda tuziladi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 366, 367-moddalari va 369-moddasi 2-qismiga muvofiq tuziladi va Qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnomada nazarda tutilgan, ularni hech qanday istisno yoki cheklovlarsiz so'zsiz aksept etishni bildiruvchi harakatlar amalga oshirilgan paytdan kuchga kiradi.

1.3. Mazkur Shartnomaga muvofiq kredit olishni istovchi jismoniy shaxslar javob berishi lozim bo'lgan aniq talablar, bir Qarz oluvchi uchun kredit summasining minimal va maksimal miqdorlari, kreditlash muddatlari, boshqa to'lovlar, shuningdek boshqa shartlar Bank tanlovi bo'yicha umumiy foydalanish mumkin bo'lgan joyda (Bankning Internetdagi rasmiy saytida: [www.anorbank.uz](http://www.anorbank.uz), Internet-Bankda, mobil ilovada, ommaviy axborot vositalarida va h.k.) tegishli ma'lumotni joylashtirish orqali potensial Qarz oluvchilarning e'tiboriga yetkaziladi.

1.4. Shartnomani tuzar ekan, Qarz oluvchi Bank tomonidan unga ko'rsatiladigan xizmatlar faqat tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy, oilaviy, maishiy va boshqa shaxsiy (maishiy) ehtiyojlar uchun mo'ljallanganligini tushunadi va bunga rozilik bildiradi. Bank xizmatlaridan foydalangan holda, Qarz oluvchi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq Operatsiyalarni amalga oshirmaslik va amalga oshirilishiga yo'l qo'ymaslikka majburiyat oladi.

1.5. Qarz oluvchini Bank Tariflari bilan (jumladan Bank tomonidan vaqti-vaqti bilan kiritiladigan o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar bilan) tanishtirish maqsadida Bank ko'rsatilgan hujjatlarni Bank Saytida e'lon qiladi. Qo'shimcha ravishda Bank Qarz oluvchini ma'lumot olish va uning Bankdan kelganligini aniqlash imkonini beruvchi boshqa usullar bilan xabardor qilishi mumkin.

## 2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Mazkur Shartnoma shartlariga ko'ra Bank Qarz oluvchiga mazkur Shartnomada nazarda tutilgan shartlarda «ANOR NASIYA» muddatli to'lov kartasini taqdim etishga majburiyat oladi, Qarz oluvchi esa mazkur Shartnoma shartlarida olingan summani qaytarishga va mazkur Shartnoma va Bank Tariflarida ko'rsatilgan boshqa to'lovlarni amalga oshirishga majburiyat oladi.

## 3. MUHIM SHARTLAR

Muddatli to'lov kartasini taqdim etish shartlari		
No	Shart	Shart mazmuni
1.	Muddatli to'lov kartasi limiti	(Summa yozib ko'rsatilgan) so'm.
2.	Shartnomaning amal qilish muddati	
3.	Muddatli to'lov kartasi bo'yicha mablag'larni taqdim etish	
4.	Foiz stavkasi	
5.	Muddatli to'lov kartasi bo'yicha asosiy qarzni so'ndirish tartibi	

6.	Qarz oluvchi tashabbusi bilan o'zgartirish kiritish uchun bir martalik komissiya	
7.	Ta'minot	
8.	Qarzdorlikni so'ndirish bo'yicha majburiyatlarni o'z vaqtida bajarmaganlik uchun stavka/Penya	
9.	Kreditning to'liq qiymati (KTQ) quyidagilarni o'z ichiga oladi	

#### **4. HISOBNI OCHISH VA YURITISH**

**4.1.** Mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq Bank Qarz oluvchiga Karta bo'yicha qarzdorlikni hisobga olish uchun milliy valyutada – O'zbekiston so'mida Hisob ochadi.

**4.2.** Hisob raqami Bank tomonidan bir tomonlama tartibda belgilanadi va Shaxsiy kabinetda (Mobil ilovani ham qo'shgan holda) ma'lumot joylashtirish orqali Qarz oluvchiga ma'lum qilinadi.

**4.3.** Ushbu Shartnomani imzolashda Qarz oluvchi Bankga muddatli to'lov kartasini chiqarish bo'yicha topshiriq beradi.

#### **5. SHARTNOMALAR BO'YICHA BERISH VA SO'NDIRISH, TA'MINOT TARTIBI**

**5.1.** Shartnoma doirasida Bank Qarz oluvchiga belgilangan Kredit limiti doirasida qayta tiklanuvchi kredit liniyasi shartlarida muddatli to'lov kartasini taqdim etadi. Mazkur shartnoma bo'yicha Kredit limiti 3-bo'limda belgilanadi. Muddatli to'lov kartasi va qayta tiklanuvchi limitning muddati mazkur Shartnoma bilan belgilanadi.

**5.2.** Shartnoma bo'yicha Bank Kreditdan foydalanish uchun foiz hisoblanmaydigan Muddatli to'lov davrini belgilaydi. Muddatli to'lov davri (uning davomiyligi) Hamkorlik tarmog'iga kiruvchi har bir savdo-xizmat ko'rsatish korxonasi uchun alohida belgilanadi. Hamkorlik tarmog'iga kiruvchi har bir savdo-xizmat ko'rsatish korxonasiida amal qiluvchi Muddatli to'lov davri to'g'risidagi ma'lumot, jumladan Bank Sayti va MBX orqali Qarz oluvchilarning e'tiboriga yetkaziladi.

**5.3.** Shartnoma bo'yicha qarz mablag'lari Qarz oluvchi tomonidan «ANOR NASIYA» Muddatli to'lov kartasi mahsuloti bo'yicha Bankning Hamkorlik tarmog'iga kiritilgan savdo-xizmat ko'rsatish korxonalarida Muddatli to'lov kartasidan foydalanib tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lov qilish, yoki ko'rsatilgan Hamkorlik tarmog'iga kiritilgan hamkor korxonalarining to'lov xizmatlari orqali tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lov qilish uchun belgilangan Kredit limiti doirasida naqd pulsiz shaklda taqdim etiladi. Shuningdek, Qarz oluvchining Muddatli to'lov kartasidagi Kredit limiti Bankning mobil ilovasida ro'yxatdan o'tgan Qarz oluvchining boshqa kartalariga qarz mablag'larini chiqarish (P2P operatsiyasi) uchun ishlatiladi.

**5.4.** Muddatli to'lov kartasidan hamkorlik tarmog'i ichida va undan tashqarida foydalanish Bank tomonidan belgilangan Tariflarga muvofiq amalga oshiriladi.

**5.5.** Bank Oylik to'lov to'lanmagan taqdirda, bu Kredit limitidan oshib ketishga olib kelsa, shuningdek mazkur Shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda, xususan suiiste'mol qilish alomatlari mavjud bo'lganda Kredit bermaslik huquqiga ega.

**5.6.** Qarz oluvchi Shaxsiy kabinetdagi ma'lumotni ko'rib chiqish orqali o'zining Qarzdorligi holati to'g'risidagi ma'lumotni mustaqil ravishda har kuni olishi shart.

**5.7.** Bank har oyda Oylik to'lovni shakllantiradi va bu haqda Qarz oluvchini Shaxsiy kabinet orqali va/yoki SMS-xabar yuborish orqali (Bank ixtiyoriga ko'ra) xabardor qiladi. Qarz oluvchining Qarzdorlik summasi to'g'risidagi to'liq ma'lumot Shaxsiy kabinet orqali Qarz oluvchining e'tiboriga yetkaziladi.

**5.8.** Oylik to'lov summasi to'g'risidagi ma'lumot olinmagan taqdirda, Qarz oluvchi o'zining Oylik to'lovi summasi to'g'risida ma'lumot olish uchun Bankning Kontakt-markaziga telefon orqali murojaat qilishi shart. Ko'rsatilgan ma'lumotni olmaslik Qarz oluvchini to'lov bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

**5.9.** Qarz oluvchi To'lov sanasiga qadar (1-ilova) Oylik to'lovni o'z vaqtida to'lashi shart. To'lanmagan taqdirda Bank Shartnoma doirasida chiqarilgan Muddatli to'lov kartasini blokirovka qilish huquqiga ega. Muddatli to'lov kartasi bo'yicha Operatsiyalarni qayta tiklash uchun Qarz oluvchi vujudga kelgan muddati o'tgan qarzdorlikni to'lashi lozim.

**5.10.** Agar To'lov sanasi ish kuni bo'lmagan kunga to'g'ri kelsa, To'lov sanasi sifatida undan oldingi eng yaqin ish kuni hisoblanadi.

**5.11.** Oylik to'lov va/yoki Shartnoma bo'yicha boshqa Qarzdorlikni so'ndirish Qarz oluvchi tomonidan Bank Saytida ko'rsatilgan usullar orqali amalga oshiriladi.

**5.12.** Qarz oluvchining Shartnoma bo'yicha Bank foydasiga har qanday to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha majburiyatlari pul mablag'lari Qarz oluvchining Bankdagi Hisobiga tushgan paytdan bajarilgan hisoblanadi.

**5.13.** Qarz oluvchi istalgan vaqtda Shartnoma bo'yicha Qarzdorlikni qisman yoki to'liq so'ndirishga haqli. Qarz oluvchi tomonidan Muddatli to'lov kartasini to'ldirish va/yoki Hisobga pul mablag'larini kiritish Bank tomonidan Kreditni qisman yoki to'liq muddatidan oldin so'ndirish to'g'risidagi ariza sifatida baholanadi. Kirim Operatsiyasi amalga oshirilganda Bank ushbu Operatsiya summasini Shartnoma bo'yicha Qarzdorlikni so'ndirishga yo'naltiradi yoki uni ortiqcha to'lov sifatida hisobga oladi. Shartnoma bo'yicha qisman muddatidan oldin so'ndirish Qarz oluvchining qo'shimcha topshiriqlarisiz Hisobdan pul mablag'larini yechib olish orqali amalga oshiriladi, bunga Qarz oluvchi o'zining so'zsiz roziligini (akseptini) beradi, bunda kelajakdagi muddatli to'lov davrlarining rejali to'lovlari ularning yuzaga kelish navbatini hisobga olgan holda so'ndiriladi.

**5.14.** Qarz oluvchi tomonidan Shartnoma bo'yicha amalga oshirilgan to'lov summasi, agar u Qarz oluvchining Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini to'liq bajarish uchun yetarli bo'lmasa, Qarz oluvchining qarzdorligini quyidagi navbat bo'yicha so'ndiradi:

1) asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;

2) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;

3) penya (jarima, penya);

4) qarzdorlikni so'ndirish bilan bog'liq Bankning boshqa xarajatlari.

**5.15.** Shartnoma bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lganda, ushbu qarzdorlikni so'ndirish to'lov davrining sanasidan qat'i nazar, Qarz oluvchining Hisobiga pul mablag'lari kelib tushganda amalga oshiriladi.

**5.16.** Xaridni qaytarishda (tovarni, ishlar/xizmatlardan voz kechishda) operatsiya qarz mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan bo'lsa, pul mablag'lari to'liq hajmda ssuda qarzdorligini so'ndirishga yo'naltiriladi (ammo joriy ssuda qarzdorligi summasidan ko'p bo'lmagan holda).

**5.17.** Qarzdorlikni so'ndirish va Shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq barcha xarajatlarni, agar u o'z ixtiyoriga ko'ra o'zi uchun maqbul bo'lgan pullik so'ndirish usullarini tanlasa va ulardan foydalansa, Qarz oluvchi mustaqil ravishda o'z zimmasiga oladi.

**5.18.** Kreditning to'liq qiymati (KTQ) qonunchilikda belgilangan tartibda hisoblanadi. Muddatli to'lovning to'liq qiymati tarkibiy qismlari to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar mazkur muddatli to'lov kartasini taqdim etish to'g'risidagi Shartnomada keltirilgan.

**5.19.** Shartnoma bo'yicha taqdim etiladigan Kredit O'zbekiston Respublikasi banklaridagi Qarz oluvchining hisobvaraqlari va omonatlariga kelib tushadigan va/yoki joylashtirilgan pul mablag'larini, jumladan mol-mulkni ijaraga berishdan tushadigan daromadlarni, omonatlar bo'yicha foizlarni, ish haqi va boshqa daromadlarni talab qilish huquqi, pul mablag'lari depoziti garovi bilan ta'minlanadi.

**5.20.** Transport vositalari/maxsus texnika/ko'chmas mulk garovi bilan. Garovning aniq shartlari notarial tasdiqlangan Garov shartnomasi bilan belgilanadi. Qarz oluvchi «Garov predmeti»ni Bank tomonidan ma'qullangan sug'urta kompaniyasi orqali sug'urtalashga va muddatli to'lov kartasi Shartnomasining butun amal qilish davomida sug'urtani ta'minlashga majburiyat oladi. Sug'urta hodisasi yuz berganda foyda oluvchi Bank hisoblanadi. Tegishli tartibda rasmiylashtirilgan sug'urta shartnomasi, sug'urta polisi va Garov predmetining notarial tasdiqlangan garov shartnomasi Qarz oluvchi tomonidan muddatli to'lov kartasini taqdim etish

sanasidan oldin Bankka taqdim etilishi lozim. Ta'minot miqdori mazkur Shartnomada ko'rsatiladi.

**5.21.** Agar Qarz oluvchi belgilangan sanaga qadar asosiy qarzni so'ndirish va/yoki mazkur Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan muddatli to'lov kartasi bo'yicha boshqa to'lovlarni amalga oshirishga qodir bo'lmasa va/yoki Shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlar buzilsa, Bank mazkur Shartnoma va amaldagi qonunchilikka muvofiq ta'minotga va/yoki uning (ularning) qismi(lari)ga undirishni qo'llash va/yoki Qarz oluvchining qarzdorligini Sug'urtalovchidan undirish bo'yicha shartsiz va qaytarib olinmaydigan huquqqa ega bo'ladi, Qarz oluvchi esa Bankka ushbu huquqni taqdim etadi.

**5.22.** Qarz oluvchilar uchun Qarz oluvchining Muddatli to'lov kartasidagi Kredit limitidan foydalanib quyidagi operatsiyalarni amalga oshirishga cheklov belgilanadi:

- Qarz mablag'larini Qarz oluvchining boshqa kartalariga chiqarish (P2P operatsiyalari);
- Begona g'ayrioddiy ta'sir ostida amalga oshirilgan operatsiyalarning oldini olish maqsadida Bank ixtiyoriga ko'ra boshqa cheklovlar (chora-tadbirlar).

Bunda Bank cheklovlar belgilanganligi to'g'risida xabar yuboradi va ushbu cheklovlarni olib tashlash uchun barcha Qarz oluvchilar Bankning mobil ilovasidagi SMS-xabar yoki PUSH-xabarnomada ko'rsatilgan telefon raqamiga qo'ng'iroq qilib qo'shimcha tasdiqlashdan o'tishi zarur.

Kredit limitiga qo'yilgan cheklovlar Bank tomonidan quyidagilardan keyin olib tashlanadi:

- 1) 1) Qarz oluvchi qo'shimcha tasdiqlash olish uchun Bankning mobil ilovasidagi SMS-xabar yoki PUSH-xabarnomada ko'rsatilgan telefon raqamiga qo'ng'iroq qilishi,
- va 2) Bank Qarz oluvchiga Bankning mobil ilovasiga bog'langan telefon raqamiga qayta qo'ng'iroq qilishi va Kredit limitining Qarz oluvchi tomonidan begona g'ayrioddiy ta'sirsiz olinayotganligi to'g'risida tasdiqlash olishi.

**5.23.** Agar mobil ilovada cheklovlar qo'yilganligi to'g'risida SMS-xabar yoki PUSH-xabarnoma yuborilganidan keyin 48 (qirq sakkiz) soat ichida Muddatli to'lov kartasini olish uchun ariza Qarz oluvchi tomonidan begona g'ayrioddiy ta'sir ostida berilganligi aniqlansa, yoki Qarz oluvchi tomonidan tasdiqlash jarayoni bajarilmagan bo'lsa va ajratilgan Muddatli to'lov kartasi sarflanmagan bo'lsa, Bank bir tomonlama tartibda Qarz oluvchining Bankning hamkorlik tarmog'idan tashqarida operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini blokirovka qiladi.

## **6. MUDDATLI TO'LOV KARTASINI CHIQRISH VA XIZMAT KO'RSATISH**

**6.1.** Mazkur Shartnoma doirasida mazkur Shartnomaga muvofiq Bank Muddatli to'lov davrini belgilaydigan, Hamkorlik tarmog'iga kiruvchi savdo-xizmat ko'rsatish korxonalarida Xarid operatsiyalarini amalga oshirish uchun, shuningdek Bankning mobil ilovasida ro'yxatdan o'tgan Qarz oluvchining boshqa kartalariga qarz mablag'larini chiqarish (P2P operatsiyasi) operatsiyalarini amalga oshirish uchun Bank Qarz oluvchiga Muddatli to'lov kartasini chiqaradi.

**6.2.** Muddatli to'lov kartasi (Virtual kartadan tashqari) Qarz oluvchi ko'rsatgan manzilga kuryerlik xizmati orqali yoki Karta Qarz oluvchi tomonidan olinganligini bir ma'noda aniqlash imkonini beruvchi boshqa usul bilan yetkazib beriladi.

**6.3.** Muddatli to'lov kartasi Qarz oluvchiga faollashtirilmagan holda beriladi. Qarz oluvchi tomonidan Operatsiyalarni amalga oshirish faqat uni Faollashtirgandan keyin mumkin bo'ladi.

**6.4.** Muddatli to'lov kartasidan foydalanib Operatsiyalarni amalga oshirishda Qarz oluvchini Autentifikatsiya qilish maqsadida Qarz oluvchiga PIN-kod taqdim etiladi. Qarz oluvchi Muddatli to'lov kartasidan foydalanish va operatsiyani amalga oshirishda to'g'ri PIN-kodni kiritish Qarz oluvchini tegishli va yetarli darajada identifikatsiya qilish ekanligiga rozilik bildiradi.

**6.5.** Muddatli to'lov kartasidan va/yoki Karta rekvizitlaridan Qarz oluvchi bo'lmagan shaxs tomonidan foydalanish taqiqlanadi.

**6.6.** Muddatli to'lov kartasi yoki Muddatli to'lov kartasi rekvizitlari Operatsiya amalga oshirilayotgan paytda Hamkorlik tarmog'iga kiruvchi savdo-xizmat ko'rsatish korxonalarida ishlar/xizmatlar uchun to'lov operatsiyalarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan. Shuningdek, Qarz oluvchining Muddatli to'lov kartasidagi Kredit limiti Bankning mobil ilovasida ro'yxatdan

o'tgan Qarz oluvchining boshqa kartalariga qarz mablag'larini chiqarish (P2P operatsiyasi) uchun, mazkur Shartnoma shartlarida nazarda tutilgan hollarda Bank tomonidan Qarz oluvchiga taqdim etiladigan Qo'shimcha xizmatlarni hisobga olgan holda, shuningdek mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq Bank Muddatli to'lov davrini belgilaydigan boshqa Operatsiyalar uchun ishlatiladi.

**6.7.** Bank tomonidan Muddatli to'lov kartasi bo'yicha Operatsiyani qayta ishlash sanasi Qarz oluvchi tomonidan uni amalga oshirish sanasiga to'g'ri kelmasligi mumkin.

**6.8.** Muddatli to'lov kartasi mavjud bo'lgan holda tegishli PIN-kod kiritilgan, yoki Muddatli to'lov kartasi mavjud bo'lgan holda PIN-kod kiritilmagan, Muddatli to'lov kartasi Rekvizitlaridan foydalanilgan, Autentifikatsiya ma'lumotlaridan foydalanilgan holda, jumladan Shaxsiy kabinetda (Mobil ilovani ham qo'shgan holda) amalga oshirilgan operatsiyalar Qarz oluvchi tomonidan va uning roziligi bilan amalga oshirilgan deb tan olinadi.

**6.9.** Bank Qarz oluvchining Shaxsiy kabinetida tegishli ma'lumotni joylashtirish orqali Muddatli to'lov kartasi va/yoki Hisob bo'yicha amalga oshirilgan Operatsiyalar to'g'risida Qarz oluvchini xabardor qiladi. Amalga oshirilgan Operatsiyalar to'g'risida xabardor qilishning ko'rsatilgan usuliga qo'shimcha ravishda, Bank o'z ixtiyoriga ko'ra, alohida qo'shimcha xizmatlar taqdim etilgan taqdirda esa - bunday xabarnomalarni SMS-xabarlar va/yoki Push-xabarnomalar yuborish orqali yo'naltirishga majburiyat oladi. Qarz oluvchi Bank tomonidan Qarz oluvchining Shaxsiy kabinetida joylashtirilgan, Muddatli to'lov kartasi va/yoki Hisob bo'yicha amalga oshirilgan Operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotni har kuni tekshirishga majburiyat oladi.

**6.10.** Muddatli to'lov kartasini muddatidan oldin qayta chiqarish yo'qotilgan/o'g'irlangan, buzilgan, ruxsatsiz foydalanilgan hollarda Qarz oluvchi tomonidan Bankka yo'llangan Muddatli to'lov kartasini qayta chiqarish to'g'risidagi Ariza asosida, qayta chiqarish paytida amal qiluvchi Bank Tariflariga muvofiq amalga oshiriladi.

**6.11.** Muddatli to'lov kartasini rasmiylashtirish va xizmat ko'rsatish uchun komissiya, uni to'lash tartibi va muddatlari Bank Tariflariga muvofiq belgilanadi.

## **7. SHAXSIY MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH**

**7.1.** Mazkur Shartnomani tuzar ekan, shuningdek Bankka Ariza yo'llab, Qarz oluvchi Bankka Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarni qog'oz va/yoki elektron shaklda, yig'ish, yozish, tartibga solish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), olish, foydalanish, uzatish (taqdim etish, kirish huquqini berish, jumladan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashni uchinchi shaxslarga topshirganda), anonimlashtirish, blokirovka qilish, o'chirish, Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlarini yo'q qilish jarayonlarini avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan va/yoki foydalanmagan holda qayta ishlashni amalga oshirish huquqini (roziligini) beradi.

**7.2.** Mazkur Shartnoma maqsadlari uchun Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlari deganda Qarz oluvchi tomonidan yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan Bankka har qanday mumkin bo'lgan usulda taqdim etilgan, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita aniqlangan yoki uning yordamida aniqlanadigan Qarz oluvchiga tegishli ma'lumot tushuniladi, jumladan quyidagi ma'lumotlar: familiya, ism, sharif; tug'ilgan kun, oy va yil; jinsi; aloqa ma'lumotlari (telefon raqamlari, elektron pochta manzillari); shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari; yashash joyi va/yoki bo'lish joyi to'g'risidagi ma'lumotlar, ta'lim, oilaviy holat, farzandlar soni, bandlik va faoliyat sohasi to'g'risidagi ma'lumotlar, ish beruvchi to'g'risidagi ma'lumotlar, o'rtacha oylik daromad va oylik xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar.

**7.3.** Qarz oluvchining yuqorida ko'rsatilgan shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi: Bank tomonidan Qarz oluvchi bilan Shartnoma tuzish imkoniyatini ko'rib chiqish, bu borada ijobiy yoki salbiy qaror Bank tomonidan, jumladan Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlarini faqat avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash orqali qabul qilinishi mumkin; Qarz oluvchi ko'rsatgan ma'lumotlarning ishonchliligini tekshirish; Shartnomani bajarish va tugatish; Shartnoma bo'yicha qarzдорlikni talab qilish (so'ndirish, undirish); Hamkorlik tarmog'iga kiruvchi savdo-xizmat ko'rsatish korxonalarini tomonidan sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar, intellektual faoliyat natijalari), hamkorlik moliyaviy xizmatlarini sotish bo'yicha shaxsiy takliflarni shakllantirish; marketing aloqalarini

shaxsiylashtirish, Qarz oluvchining to'lov qobiliyatini baholash; uning ish joyini, haqiqiy yashash manzilini, telefonini va Qarz oluvchidan olingan boshqa ma'lumotlarni qidirish va tekshirish; Qarz oluvchining Bank mahsulotlariga qiziqishini aniqlash; Qarz oluvchini marketing segmentlariga kiritish; Qarz oluvchiga Bankning boshqa xizmatlari va mahsulotlarini ilgari surish va ko'rsatish (taqdim etish) (jumladan Bank tomonidan ko'rsatiladigan boshqa xizmatlar bilan bog'liq boshqa shartnomalar tuzish imkoniyatini Bank tomonidan ko'rib chiqishni ham o'z ichiga olgan holda).

7.4. Shartnomani tuzar ekan, Qarz oluvchi Bankka kredit bitimini tuzish, o'zgartirish va bajarilishini monitoring qilishda xavfni baholash maqsadida, jumladan kredit axboroti subyektlarini reyting bo'yicha baholash orqali, shuningdek qonunchilikda belgilangan boshqa maqsadlarda istalgan vaqtda kredit byurolaridan uning kredit tarixi to'g'risidagi ma'lumotlarni so'rashni topshiradi.

## 8. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

### Qarz oluvchi huquqiga ega:

8.1. Bank tomonidan Identifikatsiya va Autentifikatsiya protsedurasi amalga oshirilgandan keyin, jumladan Autentifikatsiya ma'lumotlari va/yoki Kirish kodlaridan foydalanib, Muddatli to'lov kartasidan foydalanib amalga oshirilgan Operatsiyalar to'g'risida MBX orqali ma'lumot olish.

8.2. Shartnomada belgilangan muddatlardan oldin, istalgan vaqtda jarima sanksiyalari undirilmasdan kreditni so'ndirish.

8.3. Iste'mol tovarlari va/yoki xizmatlari uchun to'lov qilish yoki Bankning mobil ilovasida ro'yxatdan o'tgan Qarz oluvchining boshqa kartalariga qarz mablag'larini chiqarish (P2P operatsiyasi) uchun Muddatli to'lov kartasidan foydalanishni boshlashdan oldin 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida kreditni olishdan bepul asosda voz kechish.

### Qarz oluvchi majburiyat oladi:

8.4. Mazkur Shartnoma va Bank Tariflariga muvofiq Qarzdorlikni so'ndirish va Bank xizmatlari uchun to'liq hajmda to'lov qilish, jumladan amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha da'volar bildirilgan taqdirda bunday da'volarni qondirish bo'yicha yakuniy qaror qabul qilinguniga qadar.

8.5. Mazkur Shartnoma va amaldagi Bank Tariflarida ko'zda tutilgan komissiya va to'lovlarni Bankka to'lash.

8.6. Oylik to'lov summasini To'lov sanasidan kechiktirmay Hisobda ta'minlash. To'lov sanasida (shu kuni qo'shgan holda) Hisobda Bank tomonidan Oylik to'lovni (Muddatli to'lov bo'yicha to'lovni) yechib olish uchun yetarli summa bo'lmaganda, Muddati o'tgan qarzdorlik vujudga keladi, uning to'g'risidagi ma'lumotlar Bank tomonidan kredit byurolariga taqdim etiladi, bu esa Qarz oluvchining kredit tarixiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

8.7. Kreditlash Limitiga rioya etilishini nazorat qilish va Texnik overdraft yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik.

8.8. Muddatli to'lov kartasini va/yoki Mobil telefon raqamini va/yoki mazkur Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchini Autentifikatsiya qilish uchun foydalaniladigan abonent qurilmasini uchinchi shaxslarga foydalanish uchun bermaslik.

8.9. PIN-kodni, Kirish kodlarini, Autentifikatsiya ma'lumotlarini sir saqlash, ularni Muddatli to'lov kartasidan alohida saqlash va hech qanday holatda ularni uchinchi shaxslarga bildirmaslik.

8.10. Bank so'roviga ko'ra, zarurat tug'ilganda, Bankning tegishli so'rovini olgan paytdan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida Qarz oluvchining moliyaviy va mulkiy holatini tasdiqlovchi har qanday hujjatlarni Bankka taqdim etish.

8.11. F.I.Sh., yashash joyi, ish joyi, individual ma'lumotlar, shaxsiy, biografik ma'lumotlar yoki Qarz oluvchini identifikatsiya qilish, aloqa va/yoki moliyaviy va mulkiy holatini aniqlash uchun ilgari Bankka taqdim etilgan boshqa ma'lumotlar o'zgargan taqdirda, ushbu o'zgarishlar yuz bergan paytdan boshlab bir kun ichida bu haqda Bankka xabar berish.

**8.12.** Bank, uning xodimlari va huquqiy vorislari tomonidan Qarz oluvchi taqdim etgan ma'lumotlarni har qanday axborot manbalaridan foydalanib tekshirish va qayta tekshirish, shuningdek Muddatli to'lov kartasini olish uchun Qarz oluvchi taqdim etgan Anketa va hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni tekshirish imkoniyatini berish;

**8.13.** Asosiy qarz, penya va/yoki Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan kredit bo'yicha boshqa to'lovlar muddati kelganda, Avtomatik to'lov kartasidan va/yoki Qarz oluvchining Bankdagi har qanday hisobvarag'idan, Qarz oluvchining mobil ilovasiga bog'langan har qanday kartasidan, shuningdek Qarz oluvchining boshqa banklardagi hisobvaraqlaridan mablag'larni akseptsiz, shartsiz va bahssiz tartibda yechib olish bo'yicha qaytarib olinmaydigan huquqni Bankka berish.

**8.14.** Bank talabiga ko'ra, Bank ko'rgan barcha xarajat va zararlarni, jumladan mazkur Shartnoma doirasida taqdim etiladigan kredit bo'yicha qarzdorlikni (asosiy qarz va boshqa to'lovlar) majburiy va/yoki muddatidan oldin undirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilishi bilan bog'liq xarajat va zararlarni qoplash.

**8.15.** Qarz oluvchining moliyaviy holatining yomonlashishiga va Qarz oluvchi tomonidan Shartnoma bo'yicha Bank oldidagi majburiyatlarni bajarmaslik va/yoki tegishli darajada bajarmaslik xavfining yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin bo'lgan hech qanday majburiyat va chora-tadbirlarni o'z zimmasiga olmaslik.

**8.16.** Muddatli to'lov kartasini va/yoki Mobil telefon raqamini va/yoki MBXga bog'langan Abonent qurilmasini uchinchi shaxslarga foydalanish uchun bermaslik. Abonent qurilmasiga begona ilovalarni yuklab olmaslik va ilovalarga Abonent qurilmasini masofadan boshqarish huquqini bermaslik. Shuningdek, Qarz oluvchi o'z shaxsiy manfaatlarini ko'zlab, begona g'ayrioddiy ta'sirga berilmasligi lozim. Qarz oluvchi mazkur bandni buzgan taqdirda, barcha harakatlar va operatsiyalar uchun javobgarlikni Qarz oluvchi o'z zimmasiga oladi.

#### **Bank huquqiga ega:**

**8.17.** Qarz oluvchi Muddatli to'lov kartasidan foydalanish jarayonida Qarz oluvchining moliyaviy holatini tekshirish. Bunday tekshiruvlarni o'tkazish davriyligi Bank tomonidan belgilanadi.

**8.18.** Quyidagi hollarda:

1) Qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni buzish va/yoki bajarmaslik va/yoki tegishli darajada bajarmaslik;

2) Qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashishi va/yoki Qarz oluvchiga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lsa va/yoki qarzni qoplashni ta'minlash uchun Qarz oluvchining mol-mulkiga qamoq qo'yilgan bo'lsa va/yoki Qarz oluvchining pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulki bilan operatsiyalarni muzlatish va/yoki to'xtatib turish holati bo'lgan bo'lsa;

3) Bank tomonidan Qarz oluvchi tomonidan noto'g'ri ma'lumot taqdim etilganligi faktlari aniqlanganda;

4) Qarz oluvchi tomonidan bank nazoratidan bo'yin tovlash, jumladan Qarz oluvchini tegishli darajada tekshirish imkoniyati bo'lmaganda va/yoki tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Ichki nazorat Qoidalari talablariga muvofiq Qarz oluvchi tomonidan shubhali va/yoki gumonli operatsiyalar amalga oshirilganda;

5) Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan asosiy qarz, komissiyalar va/yoki muddatli to'lov bo'yicha boshqa to'lovlarni o'z vaqtida to'lamaganda;

6) kreditning qaytarilmaslik xavfini oshiruvchi har qanday omillar paydo bo'lganda;

7) Shartnoma olingan va/yoki tuzilgan paytdan boshlab 90 (to'qson) kun davomida Muddatli to'lov kartasidan foydalanilmaganda;

8) Muddatli to'lov kartasidan ruxsatsiz foydalanish gumon qilingan taqdirda,

Bank o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagilardan bir yoki bir nechtasini qo'llash huquqiga ega:

1) Bankning mobil ilovasida cheklovlar to'g'risida SMS-xabar yoki PUSH-xabar yuborilganidan keyin 48 (qirq sakkiz) soat ichida Kredit limitini olish uchun ariza Qarz oluvchi tomonidan begona g'ayrioddiy ta'sir ostida berilganligi aniqlansa, yoki Qarz oluvchi tomonidan

tasdiqlash jarayoni bajarilmagan bo'lsa, Muddatli to'lov kartasini taqdim etish to'g'risidagi Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish va foydalanilmagan Kredit limitini Qarz oluvchini bu haqda xabardor qilib qaytarish;

2) Qarz oluvchining Karta-hisobini (Muddatli to'lov kartasini) blokirovka qilish;

3) Muddatli to'lov kartasining Kredit limitini bekor qilish/kamaytirish va Muddatli to'lov kartasi bo'yicha qarzdorlik so'ndirilgandan keyin mazkur Shartnomani bajarishdan bir tomonlama tartibda to'liq yoki qisman voz kechish;

4) Shartnoma bo'yicha qarzdorlikni muddatidan oldin undirishga qo'yish;

5) o'z ixtiyoriga ko'ra komissiya va/yoki penya summalarini undirish yoki undirmaslik.

### **Bank majburiyat oladi:**

**8.19.** Mazkur Shartnoma bo'yicha har bir Operatsiya amalga oshirilganligi to'g'risida tegishli xabarnomani MBX orqali yuborish orqali Qarz oluvchini xabardor qilish.

**8.20.** Qarz oluvchining arizasi (xabari) olinganda, uning yo'qolishi bilan bog'liq yoki PIN-kod va/yoki Muddatli to'lov kartasi rekvizitlari va/yoki Kirish kodlari va/yoki Autentifikatsiya ma'lumotlari uchinchi shaxsga ma'lum bo'lib qolganligi bilan bog'liq, shuningdek Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda Muddatli to'lov kartasini blokirovka qilish. Bunda Qarz oluvchidan Muddatli to'lov kartasini blokirovka qilish to'g'risidagi ariza olinguniga qadar amalga oshirilgan barcha harakatlar va Operatsiyalar Qarz oluvchi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanadi.

**8.21.** Qarz oluvchining kredit yukini yanada oshirilishining oldini olish maqsadida, Shartnoma bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 (yetti) kalendar kun ichida elektron pochta aloqasi orqali yoki MBX vositalaridagi shaxsiy kabinetda muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga kelganligi to'g'risida so'ndirish jadvalini ilova qilib Qarz oluvchini xabardor qilish. Bu haqda yozma xabarnomalar va og'zaki eslatmalarni telefon orqali yetkazish Amaldagi qonunchilikda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

**8.22.** Shartnoma bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilgan taqdirda, Qarz oluvchining tegishli so'rovi Bankka kelib tushgan kundan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida Qarz oluvchi tomonidan Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning to'liq bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatni MBX tizimlari orqali taqdim etish.

**8.23.** Bank Internet-bank xizmati, mobil ilova orqali Muddatli to'lov kartasidan foydalanib amalga oshirilgan har bir Operatsiya to'g'risidagi, jumladan Qarz oluvchining qarzdorlik miqdori, amalga oshirilgan to'lovlarning sanalari va miqdorlari, mavjud kredit limiti summasi to'g'risidagi ma'lumotni hisob bo'yicha operatsiya amalga oshirilgan paytdan keyingi kundan kechiktirmay taqdim etishi shart. Yuqorida ko'rsatilgan ma'lumot Qarz oluvchi tomonidan Anketada ko'rsatilgan Mobil telefon raqamiga SMS-xabar/PUSH-xabarnomalar orqali taqdim etiladi.

## **9. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI. FORS-MAJOR**

**9.1.** Taraflar mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki tegishli darajada bajarmaganlik uchun Amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladilar.

**9.2.** Agar majburiyatlarni bajarmaslik mavjud sharoitlarda Shartnoma kuchga kirgandan keyin yuzaga kelgan favqulodda va oldini olib bo'lmaydigan, ya'ni yengib bo'lmas kuch holatlari natijasi bo'lsa, Taraflar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladilar. Taraflar yengib bo'lmas kuch holatlarining ta'sirini vakolatli organlarning hujjatlari bilan tasdiqlashlari lozim. Bunday holatlarga, jumladan, harbiy harakatlar, ommaviy tartibsizliklar, tabiiy ofatlar, harbiy-siyosiy vaziyatning o'zgarishi, elektr energiyasining uzilishi, ish tashlashlar, davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining mazkur Shartnoma shartlarida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishni imkonsiz qiluvchi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish to'g'risidagi qarorlari kiradi.

**9.3.** Bunda Taraflar pandemiya va (yoki) boshqa har qanday epidemiya yoki kasalliklarning kuchayishi, shuningdek pandemiya bilan bog'liq joriy etiladigan cheklov chora-tadbirlari (jumladan O'zbekiston Respublikasida karantin e'lon qilinishi) Shartnoma bo'yicha

«yengib bo'lmas kuch holati» (fors-major) deb tan olinmasligini anglaydilar va bunga rozilik bildiradilar, shuningdek Taraflar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 333-moddasi 3-qismiga muvofiq, uning dispozitivligini hisobga olgan holda yengib bo'lmas kuch to'g'risidagi qoidalarni qo'llashni istisno qiladilar. Umumiy shartlarning mazkur bandi davlat organlari tomonidan Taraflar mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni tegishli darajada bajarishi uchun cheklovlar belgilaydigan, Taraflar oqilona chora-tadbirlar bilan oldindan ko'ra olmaydigan va/yoki oldini ola olmaydigan harakatlar yoki qarorlar qabul qilingan taqdirda ham qo'llaniladi.

#### **Qarz oluvchining javobgarligi:**

**9.4.** Qarz oluvchi Bankdan olingan pul mablag'larini, shuningdek Shartnoma bo'yicha komissiya va boshqa to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq qaytarish, qarzni undirish bo'yicha sud xarajatlarini va Qarz oluvchi tomonidan majburiyatlarni bajarmaganlik yoki tegishli darajada bajarmaganlik natijasida Bankka yetkazilgan boshqa zararlarni qoplash uchun Bank oldida butun mol-mulki bilan javobgar bo'ladi.

**9.5.** Qarz oluvchi Muddatli to'lov kartasi bo'yicha va/yoki Muddatli to'lov kartasi rekvizitlaridan foydalanib amalga oshirilgan Operatsiyalar uchun mustaqil ravishda javobgar bo'ladi.

**9.6.** Muddatli to'lov kartasi yo'qolgan taqdirda Qarz oluvchi mobil ilova orqali kartani blokirovka qilish chora-tadbirlarini ko'rishi shart va Bank Qarz oluvchidan Muddatli to'lov kartasining yo'qolganligi to'g'risidagi xabarnomani (MBX orqali) olgunga qadar Muddatli to'lov kartasidan foydalanib amalga oshirilgan barcha Operatsiyalar uchun javobgar bo'ladi.

**9.7.** Qarz oluvchi Muddatli to'lov kartasini foydalanishga olgan paytdan boshlab uning tasodifan shikastlanishi/yo'qolishi xavfini o'z zimmasiga oladi.

#### **Bankning javobgarligi:**

**9.8.** Mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki tegishli darajada bajarmagan taqdirda Bank Amaldagi qonunchilik va mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Shartnoma bo'yicha kredit mablag'larini taqdim etish bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki o'z vaqtida bajarmaganlik uchun Qarz oluvchi Bankdan Shartnoma bo'yicha taqdim etilmagan kredit mablag'lari summasidan har bir kechiktirilgan kun uchun 0,1% miqdorida, ammo taqdim etilmagan kredit mablag'lari summasining 10%idan ko'p bo'lmagan miqdorda penya undirish huquqiga ega.

**9.9.** Bank o'z nazorati doirasidan tashqarida yuzaga keladigan nizoli va bahsli vaziyatlar uchun, xususan Muddatli to'lov kartasidan foydalanib sifatsiz tovar/xizmatlar sotib olinishi uchun javobgar emas.

**9.10.** Bank tashkilotlar va korxonalarining Qarz oluvchiga Muddatli to'lov kartasidan foydalanib xizmat ko'rsatishdan voz kechishi, shuningdek Bankning mulki bo'lmagan texnik vositalarning nosozligi uchun javobgar emas.

**9.11.** Bank texnik nosozliklar (elektr ta'minoti va aloqa tarmoqlari, jihozlarning uzilishi/shikastlanishi, To'lov tizimlari ishida texnik nosozliklar) yuzaga kelgan taqdirda, Qarz oluvchi tomonidan mablag'larni Hisobga o'tkazish uchun rekvizitlar noto'g'ri/to'liqsiz ko'rsatilgan taqdirda Shartnomani bajarmaganlik yoki o'z vaqtida bajarmaganlik uchun javobgar emas.

### **10. NIZOLARNI HAL QILISH VA MUROJAATLARNI QAYTA ISHLASH TARTIBI**

**10.1.** Taraflar tomonidan mazkur Shartnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan barcha nizolar o'zaro maqbul yechimni ishlab chiqish maqsadida da'vo xatlarini yo'llash orqali taraflar tomonidan dastlabki tartibda ko'rib chiqiladi.

**10.2.** Shartnoma taraflari o'rtasida yuzaga keladigan, jumladan shartnoma shartlarini bajarmaganlik tufayli kelib chiqadigan, shuningdek uni bajarish, o'zgartirish, bekor qilish, to'xtatib turish bilan bog'liq nizolarni sud tartibidan oldin hal qilish imkoni bo'lmagan barcha hollarda, nizolar da'vogarning tanloviga ko'ra Toshkent shahri va Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarida ko'rib chiqilishi, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda notarial tasdiqlangan ijro yozuvini olish yo'li bilan hal qilinishi lozim.

Notarial ijro yozuvini olish yo'li bilan qarzni undirishda qarz oluvchi notarial ijro yozuvining haqiqiylikini bir ma'noda tan oladi. Nizolarni hal qilishda da'vogar sudga murojaat qilish yoki notarial ijro yozuvini olishni tanlash huquqiga ega.

## 11. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

11.1. Shartnoma Qarz oluvchi tashabbusi bilan, Bank bilan yakuniy hisob-kitob qilingan va Qarzdorlik to'liq so'ndirilgan, Bankka Shartnomani bekor qilish to'g'risidagi Ariza taqdim etilgan taqdirda, istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin.

11.2. Shartnoma Bank tashabbusi bilan, Shartnomada belgilangan tartibda, bir tomonlama sudga murojaat qilmasdan bekor qilinishi mumkin.

11.3. Shartnomani bekor qilish Qarz oluvchining Shartnoma amal qilish davrida yuzaga kelgan Bank komissiyalari bo'yicha qarzdorlikni ham qo'shgan holda, Bank oldidagi Shartnoma bo'yicha Qarzdorlikni so'ndirish majburiyatini tugatmaydi.

## 12. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

12.1. Shartnoma Qarz oluvchi tomonidan «ANOR NASIYA» muddatli to'lov kartasini taqdim etish to'g'risidagi Shartnoma shartlari aksept qilingan paytdan kuchga kiradi.

12.2. Shartnoma Muddatli to'lov kartasi bo'yicha qarz olish davrida amal qiladi va u bo'yicha to'lovlar, komissiyalar, penyalar va boshqa to'lovlar to'liq so'ndirilgandan keyin tugatiladi.

## 13. YAKUNIY QOIDALAR

13.1. Mazkur Shartnomada ko'zda tutilmagan shartlar Universal shartnoma va Amaldagi qonunchilikka muvofiq tartibga solinadi.

**EHTIYOT BO'LING!** Agar kim oshirdir Sizga va yaqinlaringizga Kredit kartasi, qarz, kredit olish, hisob ochish, kartalar olish va shunga o'xshash masalalarda yordam taklif qilsa, bilingki, AJ «ANOR BANK» Mijozlar bilan bevosita ishlaydi, vositachilar xizmatidan foydalanmaydi.

Главный Бухгалтер	
Заместитель Председателя Правления	
Курирующий Зам. Пред. Правления	
Юрист	
Департамент БУиО	
Хозяйственное Управление	
Инициатор	

*[Handwritten signature]*

«ANOR NASIYA» muddatli to'lov kartasini

taqdim etish to'g'risidagi Shartnomaga

№\_\_ kk.oy.yyyy-yil

## SO'NDIRISH JADVALI

№	To'lov sanasi	Qarz qoldig'i	Asosiy qarz	Muddatli to'lov kartasi bo'yicha jami	Jami hamma to'lovlar
1					
2					
3					
4					

\* Agar qarzдорlikni qaytarish jadvali rasmiylashtirilgandan keyin muddatli to'lov kartasi bo'yicha moliyalashtirishni boshlash muddatlarining o'zgarishi yoki shartnomada nazarda tutilgan o'zgaruvchan foiz stavkasi, taraflar tomonidan shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqilishi (jumladan kreditni qayta tuzilmalashtirish), Qarz oluvchi tomonidan kreditni qisman muddatidan oldin so'ndirilishi munosabati bilan kredit bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki oraliq to'lovlar miqdori o'zgarsa, Bank So'ndirish jadvalini qayta rasmiylashtirib, uni Qarz oluvchiga taqdim etadi. Bunda Qarzдорlikni so'ndirish Jadvali qayta rasmiylashtirilishi bilan ilgari amal qilgan So'ndirish jadvali o'z kuchini yo'qotadi.